



SUG'URTA SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Ilyosov Tursunboy G'iyosjon o'g'li

ALSKOM sug'urta kompaniyasi AJ Bosh direktori

ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 1

DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss1/a2

ABSTRACT

Maqolada sug'urta sohasi uchun bugungi kunda raqamli texnologiyalarning o'rni qay darajada muhim ekanligi, uni joriy etish orqali sug'urta mahsulotlari tannarxining pasayishiga erishish, sug'urtalanuvchilarga har tomonlama qulay sharoitlar yaratilishi va uni nimalar vositasida, sug'urta sohasining qaysi jarayonlariga qo'llash masalalari tadqiq etilgan. Maqolada raqamli texnologiyalarni O'zbekistonda joriy etish borasida olib borilayotgan ishlar, bu borada qabul qilinayotgan hujjatlar va ularning ahamiyati to'g'risida ham fikr yuritilgan.

KEYWORDS

Sug'urta, sug'urta sohasini raqamlashtirish, aqlli sug'urta, internetlashtirish, individuallashtirish, raqamlashtirishni qonuniylashtirish.

Kirish

So'nggi besh yillikda O'zbekiston sug'urta bozori jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda va ko'plab mamlakatlarni o'zining o'sish ko'rsatkichlari bilan ortda qoldirmoqda. Ammo shunday bo'lsada, mamlakatning ijtimoiiy-iqtisodiy rivojlanishida uning rolini oshirish hamon yechilmagan vazifa bo'lib qolmoqda. Shu tufayli ushbu sohani talab darajasida rivojlantirishga davlat darajasida e'tibor qaratilmoqda. Buni Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek "Taraqqiyotga erishish uchun, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda" deya e'tirof etganida yoki ushbu murojaatnomada prezidentimiz tomonidan "...zamonaviy sug'urta xizmatlari yo'lga qo'yiladi..." deya ta'kidlaganida ko'rish mumkin. Yana shuni alohida ta'kidlash kerak - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2019-yil 10-iyulda sug'urta sohasi vakillari bilan uchrashuv o'tkazib, ushbu sohadagi mavjud muammolar masalasida batafsil fikrlashib oldi. Davlat rahbarining ushbu uchrashuvdagi "Sug'urta – bu aholi bilan ishlashimizga ko'prikdir. Sug'urtani odamlar ongiga singdirishimiz zarur"[1] degan fikrlari sug'urta sohasiga qanchalik e'tibor qaratishidan dalolatdir. Shu tufayli so'nggi to'rt yil ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sug'urta sohasini rivojlantirishga qaratilgan ikkita qarorining qabul qilinganligi[2,3], "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinganligi[4] hamda bir nechta me'yoriy hujjatlarning qabul qilinganligini keltirish mumkin.

Tadqiqotning maqsadi va usullari. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishdan maqsad, sug'urta sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari, ularni joriy etishning zarurligi va samaradorligini asoslash, O'zbekiston sug'urta bozorida raqamli texnologiyalarni joriy etishning hozirgi holatini tahlil qilish va bundan buyongi ushbu yo'nalishda chet el tajribalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan ishlar borasida takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda empirik tahlil usulidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sug'urta sohasini raqamlashtirishga qaratilgan "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi[3] qarorning qabul qilinishi o'z

vaqtda qabul qilingan hujjat bo'ldi va bu O'zbekiston sug'urta tizimini yangi, zamonaviylashtirish va jahon standartlariga mos qilib rivojlantirish, yangi innovatsion sug'urta mahsulotlarini joriy etish va ularni zamonaviy usullar yordamida sotishni yo'lga qo'yishga sezilarli turtki bo'ldi deyish mumkin. Zamonaviy elektron raqamli sug'urta faoliyatining yo'lga qo'yilishi sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi risklarni imkon qadar aniq va to'g'ri baholashga imkon beruvchi keng qamrovli ma'lumotlar bazasini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mukammal malumotlar bazasi risklarni baholashning sifatli modelini shakllantirish va sug'urta hodisalarining yuz berish ehtimoligini prognoz qilish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalarning ommalashuvi va takomillashuvi ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi, iqtisodiyotning tuzilmasi va ta'limga ta'sir ko'rsatadi, kommunikatsiyalar, hisoblash quvvatlari, axborot tizimlari va servislarga yangi talablarni belgilab beradi. Zamonaviy sharoitda rivojlangan platformalarsiz, texnologiyalar, institutsional va infratuzilmaviy muhitlarsiz bozorlar va faoliyat sohalarning dinamik rivojlanishi amalga oshmasligi muqarrar.

Raqamlashtirish sug'urtalovchilarning bazaviy innovatsiyalardan manfaatdorligini belgilab beradi. Ular sug'urta jarayonlari va mexanizmlarini soddalashtirish maqsadida raqamli texnologiyalardan borgan sari faolroq foydalanadi. Bunday texnologiyalarga, xususan, avtomatlashtirish, chatbotlar (chatbots), ma'lumotga bulut ichida ishlov berish (cloud computing), sun'iy intellekt elementlari bo'lgan texnologiyalar (artificial intelligence) kiradi.

Sug'urta kompaniyalari o'z oldilariga sug'urtalanuvchilarning ehtiyojlarini mumkin qadar ko'proq qondirishni maqsad qilib qo'yishlari zarur. Ularning ehtiyojlari birinchi o'rinda, sug'urta hodisasi yuz berganda hech qanday qiyinchiliksiz, ortiqcha harakatlarsiz sug'urta qoplamasini o'z vaqtida olishdan iborat bo'lib, ikkinchi darajali ehtiyojlari sug'urta shartnomalarini tuzish va sug'urta mukofotini to'lash jarayonlarining qulay bo'lishi hisoblanadi. Ushbu ikkala ehtiyojni ham sug'urta kompaniyalari raqamli texnologiyalarni samarali yo'lga qo'yish orqali tashkil qilishlari mumkin. Chunki raqamli texnologiyalarning barcha sohalarida rivojlanib borishi sug'urtalanuvchilarning ehtiyojlari ham shunga mos ravishda o'zgarib boradi. Iste'molchilarga raqamli texnologiyalar yordamida taqdim etiladigan foydalanish imkoniyatlari ("bir bosish" orqali xarid qilish), kunu tun foydalanish imkonini va tez etkazib berish; tovar va uning xususiyatlarini haqida aniq va tushunarli ma'lumot; innovatsion xususiyatlashtirilgan xizmatlar zarur bo'ladi. Qisqa muddatli davrda bunday natijalarga erishish sug'urtalovchi uchun ham

mijozlar sonini ko'paytirish va natijada o'z foydasini oshirish imkonini ta'minlaydi. Ayni paytda raqamli texnologiyalarni joriy qilish sug'urtalovchi uchun tovarning qiymat zanjirida harakati davomida xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Chunonchi, jarayonlarni avtomatlashtirish sug'urta da'vo arizalariga ishlov berish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning qisqarishiga olib keladi. Xarajatlarning kamayishi sug'urta kompaniyasi foydasining yanada oshishini ta'minlaydi.

Uzoq muddatli davrda foyda olish innovatsion sug'urta mahsulotlari va himoyalash xizmatlarini (protection services) joriy qilish bilan bog'liq. Kiberxavfsizlik muammosi kompaniyalar, uy xo'jaliklarining axborot yo'qolishi va keyingi zarar ko'rishdan himoya qiladigan yoki ularning oldini oluvchi mahsulotlarga talabi ortishiga olib keladi.

Ptolemus Consulting Group nomli konsalting tashkilotining o'tkazgan tahliliga ko'ra, "aqlli sug'urta" turlaridan foydalanish Buyuk Britaniya, Italiya va Germaniyada keng tarqalgan[5]. "Aqlli sug'urta" mahsulotlarini joriy qilish natijasida texnologiyaning o'zi yangi bo'lishidan tashqari sug'urta portfelining sezilarli darajada o'sishi va rivojlanishi ro'y beradi, ammo ko'p jihatdan bu eng muhim omil har bir mijoz va sug'urta ob'ektlarining o'ziga xos xususiyatlarini imkon qadar hisobga olgan holda voqea yuz berishining eng aniq ehtimoliy narx ko'rsatkichlarini shakllantirish imkonini beruvchi sug'urta mahsulotlarini sotish, bu oxir-oqibat risklarni baholashdagi aniqlikni ancha oshirish va sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga ijobiy tarzda ta'sir qilishiga imkon beradi. Shu bilan bir qatorda shunga o'xshash mahsulot turlari mijoz uchun uning sug'urta mahsulotining bahosini shakllantirishda faol ishtirok etishini nazarda tutadi va albatta, uning hayotidagi barcha yo'nalishlarda salbiy holatlar rivojlanishining oldini oladi. Xuddi shunga o'xshash tizimlarni G'arbda joriy etish tajribasi shuni ko'rsatadiki, "aqlli sug'urta" mahsuloti yo'llardagi yo'l-transport hodisalari miqdorining pasayishi, yo'l harakati xavfsizligining umumiy darajasini oshirish, avtomobil egalari sug'urta va yoqilg'ini xarajatlari qisqartirish, shuningdek, shaharlarning ekologik holatini yaxshilashga imkon berdi. Kasallikni uning erta bosqichida tashxislash samarali davolashning garovi bo'lgan tibbiyot uchun mijozlarning tibbiy xarajatlari kamaytirish, sug'urta kompaniyalariga esa sug'urta qoplamasi to'lash va ta'minlashga doir xarajatlari umumiy kamaytirishga imkon beradi.

Sug'urta telematikasini mamlakatda joriy qilish sug'urta tizimini raqamli rivojlantirish bilan bog'liq vazifalarni hal etishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi va hozirda mamlakatimiz iqtisodiyotini raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish, hukumatimiz tomonidan qo'yilgan raqamlashtirish vazifasini bajarishda yechim bo'lib xizmat qiladi.

Jahon amaliyotida moliyaviy xizmatlar sektori o'z faoliyatida xizmat iste'molchilari manfaatdor bo'lgan yangi yechimlarni amalga oshirish uchun yangi texnologiya va vositalarni tobora keng qo'llab bormoqda. Bundan tashqari, yangi moliyaviy texnologiyalar ishlab chiqarish sektoriga ham (jumladan, riteyl, telekommunikatsiya, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi) kirib bormoqda; sug'urta, kreditlash, buxgalteriya xizmatlari, ko'chmas mulkni baholash, aktivlarni boshqarish, investitsiyalar, soliqlik ma'murchiligi va boshqalarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Davlat va tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan bu texnologiyalarga katta qiziqish bildirilmoqda. Bu esa o'z navbatida, mustahkam hamkorlik munosabatlarining o'rnatilishi natijasida yuzaga kelayotgan huquqiy masalalarni hal qilish tezligi, fintech mahsulotlarining harakat tezligi va ko'lam, xavfsizlik masalalarining kompleks yechimlari, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va moliyaviy xizmatlarga kirish darajasini belgilab beradi.

Sug'urta sohasi uchun asosiy masala risklarni o'rganish va ularni taqsimlashdir, bu esa bugungi kunda biznes va jamoatchilik uchun eng muhim bo'lgan zamonaviy xatarlarni o'rganish orqali sug'urta sohasini raqamlashtirishning iqtisodiy oqibatlarini o'rganish zarurati tug'diradi.

Raqamli sug'urtalash yoki internet-sug'urta – bu sug'urtaga bo'lgan ehtiyojlarni raqamli texnologiyalar orqali qondirish usulidir.

Bugungi kunda internet orqali tovar sotish kabi internet-sug'urta xizmatlarini ko'rsatish quyidagi afzalliklarga ega:

- uydan chiqmasdan sug'urta bozori, sug'urta kompaniyasi va u tomonidan taklif etilayotgan sug'urta xizmatlari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatining mavjudligi;
- sug'urta kompaniyasining maxsus sayti yoki dasturidagi kalkulyator yordamida sug'urta mukofotini mustaqil hisoblash;
- turli sug'urta shakllari bo'yicha maslahatlarni onlayn tartibda olish;
- elektron sug'urta shartnomasi tuzish uchun internet orqali murojaat qilish;
- internet orqali elektron sug'urta shartnomasini tuzish va sug'urta mukofotini to'lash;

- sug'urta shartnomasi bo'yicha onlayn shartnoma olish;
- sug'urta hodisasi ro'y berganligini internet orqali xabar berish va to'lovlarni internet orqali olish. Sug'urta bozorida internet sug'urta xizmatlarining rivojlanishini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

- internet tarmog'i vositasida tuzilgan sug'urta shartnomalari soni va ularning umumiy sug'urta shartnomalari tarkibidagi ulushi;
- internet tarmog'i vositasida tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha to'langan sug'urta mukofotlari qiymati, jumladan, sug'urta turlari bo'yicha;
- internet tarmog'i vositasida tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha to'langan sug'urta mukofotlarining umumiy sug'urta mukofotlaridagi ulushi, jumladan sug'urta turlari bo'yicha.

Hozirgi vaqtda raqamli iqtisodiyotning mavjud terminologiyasi doirasida sug'urta faoliyatini internetlashtirish, raqamlashtirish va individuallashtirish deb ta'riflanadigan bir qator jarayonlar sug'urta bozorini raqamlashtirishning asosiy yo'nalishlari bo'lib xizmat qilmoqda (1-jadval).

Raqamli texnologiyalar rivojlanib va iqtisodiyotning barcha tarmoqlari faoliyatiga chuqur kirib borayotgan sharoitda sug'urta kompaniyalari quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishlari zarur:

- bozor o'zgarishlariga nisbatan moslashuvchan bo'lish va tezkorlik bilan yangi qarorlar qabul qila olish;
 - o'z talablarini tez o'zgartiruvchi mijozlarning yangi shartlariga nisbatan tez javob bera olish;
 - ijobiy tajribani to'plash va salbiy tajribalarni qayta ishlab chiqish;
 - zamonaviy bilimlarni to'plash va ulardan amaliyotda foydalana olish. O'zbekistonda internet-sug'urtalash tizimini rivojlanishiga quyidagi omillar ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:
 - internetdan foydalanuvchilar va internet-biznes operatsiyalarini amalga oshiruvchi shaxslar sonining ortib borayotganligi;
 - istiqbolda sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchining internet orqali bo'ladigan munosabatlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlarining qabul qilinishi mumkinligi;
 - internet orqali sug'urta xizmatlarini sotishning nisbatan yuqori rentabellikka ega ekanligi;
 - O'zbekistonda hali sug'urta xizmatlarini internet xarid qilishning ulushi past darajada ekanligi.
- Shuningdek, mamlakatimizda internet-sug'urta xizmatlarining rivojlanishiga quyidagi omillar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:
- aholi va xo'jalik subyektlarining sug'urta tizimiga bo'lgan qiziqishi va sug'urta korxonalariga bo'lgan ishonchining past ekanligi;
 - internet orqali amalga oshiriladigan sug'urta munosabatlarining kiber hujumga uchrash ehtimolining mavjudligi;
 - mamlakatning barcha hududida ham sifatli internetning mavjud emasligi.

Xulosa. O'zbekistonda internet-sug'urta xizmatlari tizimining rivojlanishi raqamli iqtisodiyot texnologiyalarini joriy etilishiga bog'liq. Bunday texnologiyalar sug'urta munosabatlarining texnologik jihatlariga ta'sir ko'rsatadi, lekin uning iqtisodiy mohiyatini o'zgartirmaydi. Sug'urta faoliyatini raqamlashtirish natijasida:

- sug'urta faoliyatining samaradorligi va rentabelligi oshadi;
- sug'urta munosabatlarining ijtimoiylashuvi ro'y beradi;
- yangi sug'urta xizmatlari va mahsulotlari paydo bo'ladi;
- sug'urta sohasidagi mehnat bozori tarkibi o'zgaradi (ayrim sug'urta agentlari, quyi va o'rta bo'g'indagi mutaxassislarning o'rni avtomatlashgan boshqaruv tizimi va robotlar egallaydi).

Umuman olganda, O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirish masalasi hali to'la hal etilmagan sharoitda tizimga raqamli texnologiyalarning keng ko'lamli va samarali joriy etilishi rivojlanishning yangi sifat bosqichiga o'tish imkonini beradi. Shu bilan birga istiqbolda internet-sug'urtalash tizimining huquqiy asoslarini yanada mukammallashtirish zarur bo'ladi.

1-jadval

Sug'urta bozorini raqamlashtirishning asosiy yo'nalishlari tavsifi[6]

Yo'nalish	Mohiyati	Qo'llanadigan raqamli texnologiyalar	Sug'urtalovchi afzal ko'rgan auditoriya
Internetlashtirish	Sug'urta kompaniyalarining biznes jarayonlarida internetdan foydalanishi	Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari; Mobil aloqa texnologiyalari; Bulutli texnologiyalar.	Tashqi – sug'urtalanuvchilar; Ichki – xodimlar, sug'urta agentlari.
Individuallashtirish	Sug'urtalangan shaxs va sug'urta obyekti to'g'risidagi ma'lumotlarning eng keng to'plamini olish asosida individual sug'urta taklifini ishlab chiqish	Katta hajmdagi ma'lumotlar; Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari; Mobil aloqa texnologiyalari.	Tashqi sug'urtalanuvchilar (jumladan, potensial sug'urtalanuvchilar).
Raqamlashtirish	Sug'urtalovchilarning biznes jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishi	Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari; Mobil aloqa texnologiyalari	Ichki xodimlar; Tashqi sug'urtalanuvchilar.

References:

1. <https://president.uz/uz/lists/view/2703>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-sonli "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.08.2019-y., 07/19/4412/3512-son).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktyabrdagi PQ-5565-sonli "Sug'ura bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2021- y., 07/21/5265/0992-son).
4. "Sug'urta faoliyati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'RQ-730, 2021-yil 23-noyabr. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.11.2021-y., 03/21/730/1089-son).
5. Boblcheff, C., Chaney, T., & Gollier, C. (2016). Analysis of Systemic Risk In the Insurance Industry. The Geneva Risk and Insurance Review. 41(1), 73-106. doi.10.1057/grir.2019.1.
6. Цифровизация страхового рынка: задачи, проблемы и перспективы. Цыганов Александр Андреевич. Брызгалов Денис Викторович. ЭКОНОМИКА И УПРАВЛЕНИЕ. № 2/2018.